



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tashkilotidagi
_____-maktabgacha ta'limi tashkiloti
o'rta guruh qo'riqchisi

_____ ning
takomillashtirilgan 1-qadam davlat
o'quv dasturi asosida 2025-yil yozgi
sog'lantirish davri
_____ oy uchun

HISOBOTI



O'rta guruh

IYUN

OY MAVZUSI:

Baxtli bolalik

1-HAFTA:

Baxtli bolalik

2-HAFTA:

Gulzorga mehr

3-HAFTA:

Bo'g'cha bo'yab sayr

4-HAFTA:

Ertak qahramonlari mehmonda



_____(tuman shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi ____-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rta guruh tarbiyachisi
____ning

**2025-yil yozgi sog'lomlashtirish davri tadbirlari faoliyatlari bo'yicha
iyun oyida amalga oshirgan ishlar
HISOBOTI**

Iyun oyi

Yoz davri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi"gi 2019-yildagi 16-dekabrdagi 595-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 2019-yil 1-maydagi 391-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi"gi 2019-yil 25-iyuldagi 591-son qarori, O'zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachining qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyena talablari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda qabul qilingan qarori (hisob raqami 30-son) SanQvaN № 0016-21 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2020-yil 17-dekabrdagi 15-son qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrdagi 138-son qaroriga "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga kiritilgan o'zgartirishlar qo'shma qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim tarbiyaning davlat siyosati to'g'risidagi tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli" Qarori va takomillashtirilgan "1-qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi asosida olib boriladi.

Guruh bolalarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan tarzda yozgi sog'lomlashtirish davri uchun ish reja tuzildi.

Ertalabki qabul va badantarbiya mashqlari ochiq havoda o'tkazilib borildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi asosida bolalarning olgan bilim, ko'nikma va malakalari mustahkamlanib borildi.

Oylik, haftalik mavzular bo'yicha rivojlantiruvchi markazlar jihozlandi va mavzuli rejalashtirish asosida ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar olib borildi.

Ta'limiy-tarbiyaviy jarayon va chiniqtirish tadbirlari samarali tashkil etildi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishda jihozlash va bezatish ishlari olib borildi.

Hamshira bilan birgalikda bolalar rivojlanishi antropometrik ko'rsatkichlari belgilandi, yer maydonchalari va o'yin maydonchalarida bolalar mehnati va o'yin faoliyati tashkil etildi, yozgi davr kun tartibiga rioya qilindi va bolalarni ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Ota-onalar uchun oilada bolalarni chiniqtirish bo'yicha kerakli ma'lumotlar va yulalar berib borildi, bola hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasi rioya etildi va ochiq havoda bolalar hayoti xavfsizligi ta'minlandi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida amalga oshiriladigan rejalashtirishni MTT ishchi guruhi va ijodiy guruhi bilan hamkorlikda tuzildi.

Yoz faslida bolalarning ochiq havoda ko'proq bo'lishi, tanasini chiniqtirish, harakatda bo'lish va salomatligini mustakam qilish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida qulay va zaruriy shart-sharoit ta'minlandi. Yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlar yorqin o'tishi ta'minlandi, charchoqyozdi mashqlar, turli ko'ngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirilib, kichik sayrlar tashkillashtirildi, ijodiy tadbirlar bajaritirildi, suv muolajalari o'rinli qo'llanildi va alohida belgilangan kun tartibiga qat'iy amal qilindi. Yozgi davrda o'quv yili davomida olib borilgan rivojlantirish markazlari va umumiy guruhlardagi ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat jarayoni ettirildi, davrga mos berilgan oy va haftalar mavzulari asosida umumiy faoliyat tashkil etildi. Bunda yosh guruhlaridagi bolalarning rivojlantirish markazlari (Qurish-yasash va matematika; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish; til va nutq; fan va tabiat; san'at)dagi erkin faoliyatlari hamda umumiy guruh (frontal)larda (musiqa, nutq o'stirish, jismoniy tarbiya, badiiy adabiyot, elementar matematika, ikkinchi tilni o'rganish) faoliyatlari olib borildi.

O'yin va jismoniy tarbiya maydonchalari SanQvaN talablari asosida jihozlandi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilindi.

Yozgi davr uchun MTTning ish rejasi, ichimlik bilan ta'minlash rejimi tashkil etildi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga ekskursiyalar va sayohatlar tashkil etildi, bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldi olish bo'yicha ko'rsatmalar, davolash-profilaktika tadbirlari tashkil etildi va o'tkazish bo'yicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar berildi.

Qum va bolalar maydonchasini o'z vaqtida namlantirish uchun sharoit yaratildi.

Sport, harakatli o'yinlar, sport bayramlari, ekskursiyalar o'tkazildi, Sog'lomlashtirish jarayoni samarali bo'lishiga erishildi.

Suv, loy va qum bilan o'ynaladigan yelim o'yinchoqlar, qo'l yuvish uchun suv, bir martalik sochiqchalar, chiqindilar uchun chelak, shamol o'yinlari uchun to'plar (aylanalar, qog'oz pirpiraklar, lentalar), voqeaband va teatrlosh tirish o'yinlari uchun jihoz va qo'g'irchoqlar, sport o'yinlari uchun jihozlar, kugalaklar, keglilar, badminton, arqonchalar, har xil kattalikdagi to'plar), tabiiy muhitni saqlash va mehnat qilish uchun kerakli jihozlar to'plami (kurakcha, belkurak, suv qoshiq, hamaq, xaskash, suv sochadigan jo'mrakli chelakchalar), sayrda namoyish uchun hikoya qilib berish uchun badiiy adabiyotlar, yengil to'shama, yulduz va pardalar kabi yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalaniladigan ajoyib jihozlarni ta'minlandi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi vazifalarini bajarish uchun barcha faoliyat turlari va rivojlantirish markazlarida olib borildi. Yozgi davrda bolaning yoshdagi bolaning eng asosiy faoliyati bo'lgan o'yin faoliyatida ham vazifalar samarali amalga oshirildi. Shuning uchun, yoz davrida bolalarni o'yin malakalarini shakllantirishga qaratilgan ijodiy o'yinlarga alohida e'tibor qaratildi.

O'rta guruh tarbiyachilari bolalarning bosh va qo'shimcha rollarni ijro etganda o'zaro hamkorlikda ishlashni ta'minlashga ahamiyat berildi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalarni yo'l harakati va hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirildi.

Tarbiyalanuvchilar biror ertak qahramonlari yordamida yoshlariga mos ravishda yo'l belgilari bilan tanishtirildi, ko'chada, uyda, jamoat joylarda, tabiat qo'ynida o'zlarini qanday tutishlari, xavfsizlik qoidalariga qanday rioya qilishlari lozimligi to'g'risidagi ma'lumotlarga tarbiyalanuvchilar ega bo'ldi.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining maqsad va vazifalari belgilandi.

Guruhning kun tartibi, ertalabki badantarbiya majmuasi shakillantirildi.

Yozgi sogʻlomlashtirish tadbirlari rejalashtirildi.

Yoz mavsumi uchun ish jurnallari yuritildi. Yoz mavsumida tashkil etiladigan ertalabki davra (suhbat), sayr va sogʻlomlashtirish tadbirlari, bolalar bilan yakka tarzda ishlash, umumiy guruhlarda va rivojlantiruvchi markazlarda taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, sogʻlomlashtirish va chiniqtirish tadbirlari reja asosida oʻtkazilib borildi.

Yozgi sogʻlomlashtirish mavsumi rejalashtirildi, rejalashtirishda maqsad va vazifalari, bolalarning yosh xususiyatlari, ehtiyojlari, maktabgacha taʼlim tashkilotining ichki imkoniyatlari, yosh guruhining shart-sharoitlari, xodimlarning pedagogik tajribasi, ijodkorligi va salohiyati eʼtiborga olingan.

Iyun oyi mavzusi: «Baxtli bolalik»

1-hafta mavzusi: Baxtli bolalik

(____ 20__yildan, ____ 20__yilgacha)

Hafta davomida Dushanba kuni- “1 Iyun - Butun dunyo bolalar kuni” ga bagʻishlangan bayram tadbiri, “Quyoshning taftini xalqimiz mavzusida faoliyatlar tashkillandi. Seshanba kuni “Qurilish materiallaridan oʻyin maydonchasini quramiz”, faoliyat sihlanma Bayram taʼlimi asosida suhbat oʻtkazildi. Chorshanba kuni- : “Yalpiz” hikoyasini oʻqiy va qilish mavzuli rasm asosida suhbat oʻtkazildi. Payshanba kuni- “Bu qurilmada” faoliyat ishlanma Havo va suv tajribasi “Quvnoq sharchalar” mavzuli suhbat. “Baxtli bolalik” bayram manzaralari asosida rasm, chizildi.. Juma kuni musiqiy xordiq “Quvnoq yoz” mavzulari asosida faoliyatlar olib borildi.

Rivojlantiruvchi markazlar:

Qurilish va konstruksiya matematika markazida: Namuna, kubik, lego, qurilish bloklaridan foydalangan holda “Qurilish materiallaridan oʻyin maydonchasini quramiz” faoliyat olib borildi.

Bolalar quruvchi kasbi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini boyitdilar, qurilish ishlarida ishtirok etdilar, jamoa bilan hamjihatlikda ishlashga odatlanisga oʻrtagildi.

Hayot xavfsizligi asoslariga alohida e'tibor qaratildi.

Syujetlirolli o'yinlar va sahnalashtirish markazida: AKT, liboslar, shar va gullardan foydalanilgan holda 1-Iyun - butunjahon bolalar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazildi.

Bolalar mustaqil ravishda o'z istaklariga ko'ra rollarni tanladilar, yil davomida yod olgan she'r va qo'shiqlarini aytishdi, Boshlovchining ko'rsatmasi asosida Konsert namoyish qilishdi

Qo'shimcha kichik guruh tarbiyalanuvchilarini bayramga taklif qilishdi

Tadbirni kuy va qo'shiqlar bilan boyitilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Til va nutq markazida: Mavzuga oid rasmlardan foydalanilgan holda Bayram taasurotlari asosida suhbat o'tkazildi.

Bolalar "1-Iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" va u kuni qanday o'tkazganliklari haqida fikrlarini bayon etdilar, lug'at boyliklarini oshirdilar. Borgan joylari haqida do'stlari bilan o'rtoqlashishdi.

Fan va tabiat markazida: Turli xil rangdagi sharlar, idishlar, salfetkalar jihozlaridan foydalanilgan holda "Quvnoq sharlar" mavzusi haqida suv bilan amaliy tajriba o'tkazildi.

Bolalar sharlarni turli xil kattalikda pufladilar, sharlarni puflagan havoda suvni tebranish holatiga keltirdilar. Har bir bolaga bitta shar berib puflatildi, sharlarni og'zini tezlik bilan bo'shatgan holda idishdagi suvni to'ldirishni hosil qilishdi.

San'at markazida: Namuna, rangli qalam, noqog'oz, oq qog'oz, yelim, salfetka jihozlaridan foydalanilgan holda "Baydli bolalar" mavzusida faoliyat olib borildi.

Bolalar bezatilgan bayramona haqidagi tasavvurlarini rasmlarda ifodaladilar, ranglardan to'g'ri foydalanishga o'rgandilar. Applikatsiya jarayonida ozodalikka alohida e'tibor qaratildi.

2-hafta mavzusi: "Gulzar"
(_____ 20____yildan, _____yilgacha)

Hafta kunlari davomida Dushanba kuni- "Gullar " do'koni, Gullarning turiga qarab saralash "Afsonaviy gul" rasm, applikatsiya usullari yordamida **ishlash**,. Seshanba kuni- Qushlar uchun shinam uy quramiz, Qushlar bizning do'stimiz rasmlar asosida

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

12 listdan iborat Yoz davri o'rta guruh iyun oyi hisobotini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 10 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.